

Siyosatshunoslik Fanlarining Ilmiy Maktablari

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li¹, Mo'minov Baxtiyor Yarash o'g'li²

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosatshunoslik fanlari sohalarining (Davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, siyosat nazariyasi va metodologiyasi (Normativ-me'yoriy paradigma – siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi), siyosiy elita va yetakchilik) ilmiy maktablari, ularning institutsional faoliyati hamda shu maktablarning siyosatshunoslik uchun qo'shgan muhim hissalarini haqida ilmiy ma'lumotlar berib o'tiladi. Maqolaning dolzarbligi yuqorida keltirilgan maktablarning hozirgi kundagi siyosiy jarayonlarga ta'siri va siyosat maydonida qo'llay oladigan usullari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ingliz – Amerika ilmiy maktabi, Nemis (Germaniya) ilmiy maktabi, Fransuz (Fransiya) ilmiy maktabi, Rossiya ilmiy maktabi, Xitoy ilmiy maktabi, Yaponiya ilmiy maktabi, siyosatshunoslik, ilmiy tadqiqotlar, metodlar (usullar).

Kirish va dolzarbligi. Siyosatshunoslik sohasida ilmiy maktablar – bu sohaviy masalalarni tadqiq etuvchi, ularning tahliliy, institutsional, funksional, strukturaviy vektorlarini ochishda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari siyosiy sohalaridagi muayyan dolzarb muammolarni ilmiy tadqiqotlari orqali yechishga yo'naltirilgan. Siyosatshunoslikning mazkur fanlarida o'z ilmiy ishlariga ega bo'lgan maktablar hisoblanadi. Bundan tashqari bu maktablar hozirda turli ilmiy markazlar, tadqiqot institutlari, siyosiy kompaniyalar, "AQL markazlari (Think tanks)" sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu maktablarning bosqichma-bosqich rivojlangan sari ulardagi ilmiy tadqiqot usullari ham o'zgarib bormoqda.

Tadqiqot usuli va metodologiyasi. Umumiy nuqtai nazardan hozirgi siyosatshunoslik sohasidagi maktablar g'arb va sharq siyosatshunosligida ko'rib chiqish mumkin. Shuningdek, ushbu maktablarning ilmiy metodologik tadqiqot usullari bilan siyosiy fanlarga, sohaga ilmiy metodlarni kiritadi. Hozirgi zamon g'arb siyosatshunosligining asosiy maktablari:

- Ingliz-Amerika maktabi (Siyosiy modernizatsiya, siyosiy ixtiloflar, barqarorlik va tashqi siyosat masalalarining ishlab chiqilishi)
- Fransuz maktabi (Siyosiy rejimlar tipologiyasi, legitimlik, jamiyatning siyosiy partiyaviy tuzulishi masalalarini o'rganish).
- Nemis maktabi (Siyosiy tizimlarning qiyosiy tahlili, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat masalalarini tadqiq qilish).³

Hozirgi zamonda sharq siyosatshunosligida asosiy maktablari:

- Xitoy (Konfutsiy) maktabi. Bu maktab asosan siyosiy tahlil, prognozlashtirish, matematik modellashtirish, mintaqaviy konfliktlarni aniqlash munosabatlari bilan shug'illanadi.)
- Yaponiya (Yapon milliy) maktabi. (Kuchlar muvozanati, kibernetik va texnologik tahlil usullari, geosiyosiy tartibotlar bilan shug'illanadi)

¹ Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi Siyosat22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

² Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi Siyosat22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

³ Bo'tayev.U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik/U.X.Bo'tayev – T.: Info Capital Books, 2024. – 105b.



c) Singapur (Li Kvan Yu oliy maktabi) maktabi. (Boshqaruv munosabatlarini tartibga solish, konvensial texnologiyalar, monitoring, xodimlarning kasbiy kompetentligini oshirish texnologiyalari bilan shug'illanadi.⁴

Geosiyosatda “Ingliz-Amerika altanlika maktabi”, “Kontinental-Yevropa maktablari”, “Yevroosiyo maktablari” “Osiyo maktabi” kabi ilmiy geosiyosat maktablari mavjud.

Ingliz – Amerika atlantika geosiyosati maktabi: XX asning ikkinchi yarmidan boshlab jahonda geosiyosiy nazariyalarning rivoji asosan ingliz-amerika geosiyosat maktabi asoschilari Makinder, Mehen, Spaykmen va boshqa namoyondalar tomonidan ochilgan yo‘ldan borilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu shunga bog‘liq ediki, Germaniyaning mag‘lubiyati va uning asosiy geosiyosiy maslahatchisi K.Haushoferning fojiali o‘limidan keyin “Uchinchi reyx” siyosatchilari bilan hamkorlikda ayblangan nemis geosiyosiy maktabining davomchilari g‘olib davrlar va ularning ilmiy jamoatchiligi tomonidan jiddiy bosimga uchradilar. AQSH “talassokratsiya” yo‘li (ya‘ni ingliz-sakson “dengiz kuchi” geosiyosiy maktabi) rasmiy geosiyosiy tadqiqotlar markazida bo‘lgan bir chog‘da yevropa geosiyosati, ayniqsa, uning nemis “tellurokratsiya” kontinental maktabi jiddiy zarba olib, amalda 50-yillarning oxiriga qadar faoliyat ko‘rsatmadi. Ingliz-amerika atlantika maktabida “neatlantizm” g‘oyasi paydo bo‘ldi. Bu g‘oyaga ko‘ra AQSH o‘zining avvalgi qudratiga shubha bilan qarashlar vujudga kela boshlandi. Xususan, Samuel Xantington o‘zining “Sivilizatsiyalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari” “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” “Jahon kompani”, “Jahonning yangi kompani” asarida AQSHning jahon siyosatidagi rolini boshqa davlatlar bilan qiyosiy tahlilini keltirgan. Jozef Nayning “yumshoq kuch” asarida ham buning sabablari keltirilgan.

“Kontinental – Yevropa maktabi” Ushbu maktab bir necha maktablarni birlashtirgan. Germaniya, Fransiya geosiyosat maktablari mavjud. Bu maktablarning asosiy faoliyati 1930-1945-yillarda asosiy faoliyatni amlaga oshirgan.

Germaniyat geosiyosat maktabida Karl Haushofer, Aleksandr fon Gumbold, Karl Ritter, Shmidt kabi geostrateglar geosiyosatda muhim ilmiy ishlarni amalga oshirgan, Xususan, “Hayotiy makon” nazariyasini davom etirgan va uning amaliy faoliyatini amalga oshirgan. “Hayotiy kenglik” da Germaniyaning yashovchanligini oshirishning muhim mexanizmlarini ishlab chiqishgan. Bundan tashqari bu maktab tarafdorlarining g‘oyalari 1933-1944-yillarda Germaniya mudofaa va harbiy qudrati qismlarida malda ta‘minlash uchun harakatlar boshlangan. Bu davlatning geosiyosiy vektorlari 1950-yildan boshlab o‘zgargan.

Fransiya geosiyosat maktabi. XVIII va XX asrlarda boshlangan. Namoyondalari Jan Boden, Sharl Monteskye, Batist, Dyubo, Ippolit Adolf Ten, Edmond Demolen, Georg Fridrix Gegel, Jan Jak Videl, Alemajon kabilar hisoblanadi. Bu maktab asosida Fransiyaning Yevropa davlatlari orasidagi qudratini mustahkamlash va geosiyosiy maydondagi raqobatdoshligini saqlab qolishdir.

“Yevroosiyo geosiyosiy maktabi” Rossiya geosiyosiy maktabi hisoblanadi. L.N. Gumilov, N.Ya. Danilevskiy, V.P.Semyonov, Tyan-Shanskiy, P.N.Savitskiy kabi namoyondalar ushbu Rossiya maktabining tadqiqotchilari hisoblanadi. Bu maktab 2 oqimga ega g‘arbga va o‘z davlatining geosiyosiy imkoniyatlaridan kelib chiqib geosiyosiy maqsadlarni ishlab chiqish muhim sanaladi. Passionarizm oqimi ham Rossiyaning g‘arbga qarab og‘ishini yoqlaydi. Biroq, Slayanchilik harakati esa slavyan davlatlari bilan yaqinlashishni anglatadi. Neoyevroosiyochilik harakati ham bor hozirda zamonaviy geosiyosiy g‘oya hisoblanib, Rossiya davlatining mintaqaviy geosiyosiy manfaatlari nazarda tutiladi. Bu maktabda asosiy vektorlar davlatning o‘ziga va xalqaro munosabatlarga yo‘naltirilgan hisoblanadi.

“Osiyo geosiyosiy maktabi” Xitoy va Yaponiya geosiyosiy maktabi kiradi. Osiyo maktabida asosiy siyosiy maktablardan biri bo‘lib, ushbu maktab Konfutsiychilik harakati asosida Xitoyning muhim geostrategik va geosiyosiy manfaatlari ko‘rib chiqiladi.

Yaponiya geosiyosiy maktabi ko‘pincha Kiota maktabi nomi bilan mashhur hisoblanadi. Geosiyosat borasida mana shu maktab Edo davridan beri mavjud hisoblanadi. Yaponiya odatda quruqlik va dengiz

⁴ K.M.Mirzaaxmedov. Davlat fuqarolik xizmati va Personal boshqaruvi:Ma‘ruza. 2023. 6-7b.



bo'yicha bo'yicha "Panosiyoochilik" harakati va "Yevroosiyochilik" singari geosiyosiy qarashlari mavjud. Unga ko'ra, Yaponiyaning Janubiy-Sharqiy Osiyoda dengiz bo'yicha qudratini mustahkamlab, quruqlik bo'yicha ham asosiy geosiyosiy qudratli kuch ustuvorliklariga ega bo'lishini taqazo etadi. Bu g'oyalar asosan 1920-1945-yillarda aml qilgan va hozirda bu faoliyat bir qator omillar va sabablar tufayli o'z vektorlarini o'zgartirgan.⁵

Davlat boshqaruvi (Public Administration) sohasida XIX asr oxiri va XX asrning oxirlarida bir qator ilmiy maktablar faoliyat ko'rsatgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- 1) Ilmiy boshqaruv maktabi. Bu davr 1885-1920-yillar. Namoyondalari: Teylor, Ford, Gilbert, Gantlar hisoblanadi. Asosiy mohiyati ish mazmunini tahlil qilish va uning asosiy komponentlarini belgilashdir. Bu borada dastlabki izlanishlar amerikalik iqtisodchi olim Teylorizm ta'limotida yotadi. U o'sha davrda malakasiz ishchilarni malakali ishchilarga aylantirish maqsadida "Mehnat turlarini operatsiyalarga" bo'lib chiqadi. Mehnat turini maxsus operatsiyalashtirish "Ilmiy menejment"ning asosidir.
- 2) Ma'muriy boshqaruv maktabi (Klassik maktab). 1920-1950-yillar. Ushbu maktabning eng yirik vakili fransuz huquqshunos, siyosatchi Anri Fayoldir. Fayol samarador boshqaruvni alohida mehnat elementlari bilan emas balki, tashkilotning ratsional boshqaruvda deb ta'riflaydi. Ya'ni tashkilotlar:
 - a) Rejalashtirish;
 - b) Tartibga solish;
 - c) Personalni boshqarish;
 - d) Muvofiqlashtirish;
 - e) Nazorat qilish. Funktsiyalari orqali samarali ma'muriy boshqaruvga erishadi. Ma'muriy huquq asosi: Taqiqlash, inkor etish, imtiyoz berish, tavsiya etish hisoblanadi.
- 3) Insoniy munosabatlar maktabi. 1930-1950-yillar. Mazkur maktab insident 1924-yildan boshlab Elton Meyo g'oyalariga asoslangan holda o'zining yo'nalishlarini shakllantiradi. Mazkur maktab bosh g'oyasi "Har bir tashkilot va xodimlarga uning manfaatlariga g'amxorlik qilish orqali o'zining boshqaruv samaradorligiga erishadi". Bu "Utilitarizm g'oyasi" deb yuritiladi.

Utilitarizm:

- a) Psixologik ta'sirga;
- b) Me'yor;
- c) Majburlash.
- d) Miqdoriy yondashuv maktabi. 1950-yildan hozirgacha. Asosiy mohiyati boshqaruvda o'lchanadiga matematik modellar asosida boshqaruv algaritimini ishlab chiqishdir. Bunda boshqaruvning asosi bashoratga asoslanadi.
- e) 1990-yilga kelib, "Public Administration" tizimida 2ta paradigmal yo'nalish:
 - a) Government (Ma'muriy);
 - b) Governes (Boshqaruv).⁶

Siyosiy elita va yetakchilik borasida Makiavellizm maktabi, Rossiya maktabi, AQSH maktabi, Sharq maktablari mavjud hisoblanadi.

Makiavellizm maktabi. Bu maktab tarafdorlari Vilfredo Pareto, Robert Mixels va Gaitana Moska hisoblanadi. Bu maktab asosida nemis va italiyan tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlari yotadi. Maktab mohiyati: elitalarning rekritlashuvi, sirkulaytsiyasi, transformasiyasi, elita tabiati va tuzilishi,

⁵ A.Xasanov. Geosiyosat. T.: "Tamaddun". 2016. 39-67, 82-94, 145-179b.

⁶ K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari: Ma'ruza. 2022. 2-5b.



turlari, siyosiy institutlarning elitalashuvi, elita guruhlari va umumiy elita borasidagi masalalarni qamrab oladi.⁷

Rossiya maktabi. Bu maktab elialar borasida davlatda mavjud elita guruhlari o'rtasidagi o'zaro raqobat omili sifatida yuzaga keldi. Bu maktab asosan XII asrdan knyazliklar, boyarlar, elitar guruhlar o'rtasida boshqaruv va hokimyat munosabatlariga erishish uchun o'zlari ustida o'rgana boshlashdi. Axborot va turli ma'lumotlar yig'ishlar va bu ma'lumotlarning sintez va analiz jarayonlarida mazkur maktab vakillari ilmiy tadqiqot sifatida ko'ra boshlash siyosiy maydonga kirib keldi.

AQSH maktabi. Bu maktab XIX asr o'rtalaridan XX asr oxirlarida vujudga keldi. BU maktab asosida Elitalar raqobati va elitalar samaradorligi, Ularning meritokratik, texnokratik, gerontokratik, ilmiy va amaliy usullarni samarali qo'llash orqali bu jarayonda raqobatni amalga oshirish hisoblangan.⁸

Osiyo maktabi. Bu shartli ravishda elitalari mavjud Shimoliy Osiyo va O'rta Sharq mintaqasida Turkiya, Shimoli -Sharqiy Osiyo mintaqasida Shimoliy Korea, Sharqiy Osiyo mintaqasida Xitoy, Yaponiya, Janubiy-Sharqiy Osiyo Fillippin, Singapur, Malayziya, Indoneziya kabi davlatlarda bir qator elitalar borasida ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat yuritadi. Bu maktablar asosan XX asr oxirlarida vujudga kelgan. Bu markazlarning asosiy nuqtasi elita mustahkamligini saqlab qolish hisoblangan. Jumladan harbiy elita, intellektual elita, iqtisodiy elita, siyosiy-boshqaruv elitalari o'rtasida o'zaro mustahkamlash hisoblangan.⁹

Xalqaro munosabatlar va nazariy tadqiqotlarda asosiy maktab sifatida ikkita maktab ko'riladi:

a) Idealistik yondashuv maktablari

b) Realistik yondashuv maktablari

Idealistik paradigmaga asoslanuvchi maktablar asosan xalqaro munosabatlarda tinchlik, hamkorlik, konfliktlarni o'zaro hal qilishda institutsionalizm omili ustuvor ko'ruvchi sifatida ko'riladi. Biroq strategiyalar ishlab chiqishda "maqsad+natija=resurs" formulasini ilgari suradi. Bu bilan realism maktabidagilarning tanqidiga uchraydi.

Realizm yondashuvi maktabi. Xalqaro munosabat anarxiyadir. Unda kuchlar va qudratlar nisbati rol o'ynaydi deb aytiladi. Strategiya ishlab chiqishda idealitik yondashuv tarafdorlariga qaraganda "resurs + maqsad = natija" formulasida ishlaydi. Bu yondashuv tarafdoriga mashhur italiyalik amaldor, siyosatchi Nikollo Makiavelli hisoblanadi.¹⁰

Xulosa. Yuqorida keltirilgan bir qator maktablar asosan, davlatlar miqyosida va ilmiy tadqiqotlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Shu ilmiy asos aniqki, bu maktablar o'z maktablarini paradigmal nazariy fundamentlarini himoya qilish bilan birga, ilmiy tadqiqot usullari bilan sohaviy tarzda bir qator tahliliy jarayonlarni amalga oshirishadi. Bu hozirgi siyosatshunoslikning nazariy va amaliy asosini shakllantirish uchun ham muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bu maktablar hozirgi bir qator tahlil, ilmiy-tadqiqot markazlariga tamal toshini qo'ygan hisoblanishadi. Chunki ularning olib borgan ilmiy izlanishlari keyingi tuzilmalar ushuni muhim fundamental bosqichni boshlashga xizmat qilgan.

⁷ Ашин Г. К. А98 Элитология: история, теория, современность: монография / Г.К. Ашин. Моек. гос. ин-т междунар. отношений (ун-т) МИД России, каф. философии. — М.: МГИМО-Университет, 2010.- 234-241с. ISBN 978-5-9228-0582-7

⁸ Г. К. Ашин, А. В. Понедельков, В. Г. Игнатов, А. М. Старостин. Основы политической элитологии. Учебное пособие. Рекомендовано Министерством общего и профессионального образования Российской Федерации в качестве учебного пособия для студентов высших учебных заведений. Москва. 1999 24-27с.

⁹ Элиты стран Востока: [сборник статей] / Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки, Центр изучения совр. проблем Юго-Восточной Азии и АТР; под ред. А. Ю. Другова, Н. П. Малетина, О. В. Новаковой. — Москва: Ключ-С, 2011. — 29-41, 57-69, 245-266 с. ISBN 978-5-93136-148-2

¹⁰ K.M.Mirzaahmedov. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma'ruza. 2024. 5-9b.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bo‘tayev.U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik/U.X.Bo‘tayev – T.: Info Capital Books, 2024. – 105b.
2. K.M.Mirzaaxmedov. Davlat fuqarolik xizmati va Personal boshqaruvi:Ma’ruza. 2023. 6-7b.
3. A.Xasanov. Geosiyosat. T.:”Tamaddun”. 2016. 39-67, 82-94, 145-179b.
4. K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari: Ma’ruza. 2022. 2-5b.
5. Ашин Г. К. А98 Элитология: история, теория, современность: монография / Г.К. Ашин. Моек. гос. ин-т междунар. отношений (ун-т) МИД России, каф. философии. — М.: МГИМО-Университет, 2010.- 234-241с. ISBN 978-5-9228-0582-7
6. Г. К. Ашин, А. В. Понеделков, В. Г. Игнатов, А. М. Старостин. Основы политической элитологии. Учебное пособие. Рекомендовано Министерством общего и профессионального образования Российской Федерации в качестве учебного пособия для студентов высших учебных заведений. Москва. 1999 24-27с.
7. Элиты стран Востока: [сборник статей] / Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки, Центр изучения совр. проблем Юго-Восточной Азии и АТР; под ред. А. Ю. Другова, Н. П. Малетина, О. В. Новаковой. — Москва: Ключ-С, 2011. — 29-41, 57-69, 245-266 с. ISBN 978-5-93136-148-2
8. K.M.Mirzaaxmedov. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma’ruza. 2024. 5-9b.

